

TURKIYANING SIYOSIY, IQTISODIY VA IJTIMOY TADQIQOTLAR JAMG'ARMASI (SETA) HAQIDA

Askaraliyeva Nazokat Mirzatilla qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
sotsiologiya yo'nalishi talabasi.

askaraliyevanazokat0@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11183864>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Turkiyaning eng mashxur tadqiqot va tahlil markazlarida biri bo'lgan "Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlar jamg'armasi" (SETA) haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib, maqolani o'qish davomida markaz haqida ma'lumot, unda olib borilgan tadqiqotlar haqida tushunchaga ega bo'lasiz.*

***Kalit so'zlar:** SETA, tadqiqot, tahlil, siyosat, iqtisodiyot.*

ABOUT POLITICAL, ECONOMIC AND SOCIAL RESEARCH FOUNDATION OF TURKEY (SETA)

***Abstract.** This article provides information about the Foundation for Political, Economic and Social Research (SETA), one of the most famous research and analysis centers in Turkey. you will gain an understanding of the research that has been done.*

***Key words:** SETA, research, analysis, policy, economy.*

О ФОНДЕ ПОЛИТИЧЕСКИХ, ЭКОНОМИЧЕСКИХ И СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ТУРЦИИ (SETA)

***Аннотация.** В этой статье представлена информация о Фонде политических, экономических и социальных исследований (SETA), одном из самых известных исследовательских и аналитических центров в Турции. Вы получите представление о проведенных исследованиях.*

***Ключевые слова:** SETA, исследования, анализ, политика, экономика.*

Kirish. Tadqiqot markazlari ta'lim, iqtisodiyot, siyosat, ekologiya, madaniyat, san'at va yana ko'plab sohalarda xizmat faoliyatini tashkil etish, o'rganish, tahlil etish uchun tashkil etilgan yagona yoki ko'p tarmoqli bo'linmalardir. Markazlar odatda ma'lum bir mavzu, muammo, loyiha yoki siyosat mavzusini o'rganish atrofida tashkil etiladi, lekin ko'pincha bir qator akademik sohalarni qamrab olgan fanlararo ishlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotlar olib borilishidagi asosiy vazifa- tadqiqot jarayoni tugagandan so'ng nimaga erishishga intilayotganini qisqacha va aniq tarzda so'z bilan ifodalashdan iborat.

Bugungi kunda dunyo bo'yicha 15 mingga yaqin tadqiqot va tahlil markazlari turli yo'nalishlarda o'z faoliyatlarini olib bormoqdalar.

Ushbu maqolada esa aynan shunday tadqiqot markazlari sirasiga kiruvchi Turkiyada joylashgan "Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlar jamg'armasi" haqida so'z boradi. Turkiyada bir qancha yuzlab tahlil markazlari mavjud. Tahlil markazlarining asosiy maqsadlaridan biri tashqi siyosat va xavfsizlik siyosatining kun tartibini belgilashdan iborat. Turkiyaning eng yirik tadqiqot-tahlil markazlaridan biri bu "Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlar jamg'armasi" (SETA) dir.

Metod va materiallar. Hujjatlardan o'rganish metodi va internet ma'lumotlaridan foydalangan holda ushbu tadqiqot markazini tahlil etamiz.

SETA siyosiy tavsiyalar berish maqsadida dolzarb siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha tadqiqot loyihalarini amalga oshiradi.

SETA Turkiyadagi tahlil markazlari ichidagi eng yuqori darajadagi ommaviy axborot vositalariga ega bo'lgan tadqiqot markazi hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, SETA dagi ko'plab mutaxassislar hukumatga yaqinligi bilan mashxur bo'lgan. SETA mutaxassislari Turk Radio va Televideniyesi (TRT) va A News kanallarida, Turkiya jamoatchiligiga murojaat qilishlari mumkin bo'lgan yangiliklar sharhlari va muhokama dasturlarida tez-tez qatnashib, birinchi navbatda o'z fikrlarini jamoatchilik bilan baham ko'rish imkoniyatiga ega bo'lganlar.

SETA ta'lim, tashqi siyosat va boshqa yo'nalishlarga ixtisoslashgan qator bo'limlarga ega ilmiy muassasa sifatida 532 ta kitob, ma'ruza va tahlillarni chop etgan. Bu nashrlar Turkiya tashqi siyosati, siyosiy partiyalar, prezidentlik tizimi, sud-huquq islohoti, kollej talabalari o'rtasidagi radikallashuv, suriyalik qochqinlar, gumanitar yordam va islomofobiya kabi turli mavzularga tegishli. SETA, shuningdek, Turkiyaning Gulenchi Terror Guruhi (FETÖ), Daesh va PKK kabi terror guruhlari va 2016-yil 15-iyuldagi davlat to'ntarishiga urinish bilan kurashini ham o'rgangan. Tashkilot ushbu loyihalarni jamoatchilik oldidagi burchini his qilgan holda amalga oshirgan.

Bugungi kunda ushbu markaz tomonidan o'rganilgan va o'rganib kelinayotgan eng katta muammolardan biri bu Isroil-Falastin muammosidir. Ushbu masala yuzasidan tashkilot turli tadbirlar o'tkazmoqda hamda tadqiqot va tahlil ishlarini olib bormoqda. Jumladan Murat Aslan tomonidan 2023-yil noyabr oyida o'tkazgan Isroilning G'azoga hujumlari harbiy va siyosiy baho mavzusidagi tahlili Hamasning 7-oktabrdagi amaliyoti va Isroilning davom etayotgan amaliyotlaridagi harbiy va siyosiy kontekstdagi mavjud vaziyatni o'rganishni maqsad qilgan. Shu ma'noda, bu tahlil 7-oktabr kuni va undan keyin sodir bo'lgan "nima bo'lgan" va "ehtimoliy natijalar"ni Hamas va Isroilning ishg'ollariga ob'ektiv harbiy va siyosiy baho berish bilan tekshiradi.[1]

Yucel Acer tomonidan 2023-yil 17-noyabrda o‘tkazilgan tahlil mavzusi Isroilning G‘azodagi jinoyatlari mavzusida edi. Ushbu tadqiqot Isroilning G‘azodagi harakatlariga huquqiy baho berishdan oldin xalqaro huquqning tegishli qismlarini taqdim etgan.[2] Bundan tashqari Yücel Acer, Burhonettin Duran, Murat Yeşiltash tomonida BMT islohoti nomli kitob ham nashr etilgan. Ushbu kitobda BMT islohoti bo‘yicha takliflarning ba‘zi tahlillari va mintaqaviy guruhlarini tashkil etuvchi davlatlardan kelgan ba‘zi takliflar, ularning umumiy tomonlari va hamjamiyatlarini jarayonda aks ettiradi.[3]

Muxokama va natijalar. “Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlar jamg‘armasi” (SETA) Turkiyaning Anqara shahrida joylashgan siyosatshunoslik markazi hisoblanadi. Ushbu markaz 2005-yilda Ibrahim Kalin tomonidan siyosat, iqtisodiyot va jamiyat sohalarida dolzarb va aniq bilim va tahlillarni ishlab chiqarish hamda jamoatchilikni o‘zgaruvchan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitlar to‘g‘risida xabardor qilish maqsadida tashkil etilgan. Markaz Turkiya Prezidenti Rajab Toyyib Erdog‘an tomonidan nazorat qilib kelinadi. SETA tadqiqot markazining Istanbul, Vashington, Kolumbiya, Berlin, Bryussel va Qohira kabi shaharlarda ofislari mavjud.

Milliy va global muammolarni tarixiy va madaniy chuqurlikda ko‘rib chiqadigan SETA, bugungi kun uchun ma‘lumot ishlab chiqarish va kelajak uchun prognozlar qilishni maqsad qiladi.

SETAning asosiy intellektual maqsadi esa milliy, mintaqaviy va global muammolarni hal qilishdan iborat. Bilimga asoslangan muassasa sifatida SETA dialog platformasi vazifasini o‘taydi va turli qarashlarni xalqaro fan standartlariga muvofiq va partiyaviy tashvishlardan uzoqda birlashtirib, umumiy fikrni shakllantirishga hissa qo‘shadi. Bundan tashqari, SETA Insight Turkey(inglizcha), Ru‘ye Turkiyye(arab) va Kriter(turkcha) nomli jurnallarini nashr etadi. SETA tadqiqot va siyosatni tavsiya qiluvchi muassasa sifatida turli qarashlarni xalqaro ilmiy standartlar bilan birlashtirish uchun xalqaro muloqot forumini taqdim etadi va umumiy asosni shakllantirishga hissa qo‘shadi. Tadqiqot hisobotlari, nashrlar, konferensiyalar va siyosat tavsiyalari orqali SETA hukumat, fuqarolik jamiyati va biznes rahbarlariga yo‘l ko‘rsatishga intiladi hamda Turkiyada qaror qabul qilish mexanizmlariga hissa qo‘shadi. SETA missiyasi hamkorlikdagi va fanlararo tadqiqotlarni rivojlantirish, strategik munozaralarni boyitish, davlat hamda xususiy sektorda qaror qabul qiluvchi shaxslarni nufuzli, shu bilan birga mustaqil axborot, tahlil va chora-tadbirlar bo‘yicha takliflar bilan ta‘minlashdan iborat.

Xulosa.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki bugungi kunda O‘zbekiston va Turkiya davlatlari o‘rtasida mustahkam aloqalar mavjud bo‘lib, bu aloqalar tadqiqot va tahlil markazlari orasida ham o‘rnatilmoqda. Darhaqiqat, Turkiya ilmiy-tadqiqot institutlari, shu bilan birgalikda SETA tomonidan ham O‘zbekiston tadqiqot markazlariga nisbatan jiddiy qiziqish bildirilganligi

va ular o'rtasida turli sohalar yuzasidan sherikchilik o'rnatilgani ham bunga yaqqol misol bo'la oladi. Shu jumladan o'tgan yillar mobaynida Markaziy Osiyo xalqaro institutida Turkiyaning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlar jamg'armasi (SETA) bilan hamkorlikda "O'zbekiston va Turkiya tahlil institutlari o'rtasidagi strategik sheriklikning yangi bosqichi" mavzusida davra suhbatlari o'tkazilgan bo'lib, ushbu tadbirda ikki tomonlama munosabat masalasi chuqur muhokama qilinib, o'zaro hurmat, ishonch va do'stlikka asoslangan ko'p qirrali o'zbek-turk hamkorligini yanada faollashtirish yuzasidan fikr almashilgan edi. Turkiyada olib borilayotgan dolzarb muammolar tahlillaridan namuna olib, o'rganib biz ham mamlakatimizda shunday mukammal darajadagi tadqiqotlarni amalga oshirishimiz kerak deb hisoblayman.

REFERENCES

1. <https://setav.org/en/assets/uploads/2023/11/A86En.pdf>
2. <https://setav.org/en/assets/uploads/2023/11/A85En.pdf>
3. <https://setav.org/en/assets/uploads/2023/09/K103En.pdf>
4. <https://setadc.org/seta-dc/>
5. <https://www.trt.net.tr/uzbek/turk-dunyosi/2022/10/28/01234567890-1899138>
6. Джиянмуратова Г. Ш. и др. СИЁСИЙ БЕГОНАЛАШУВ НАЗАРИЯЛАРИ: ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИ //ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2022. – №. SI-2.
7. ДЗИЯНМУРАТОВА Г. Ш. ИССЛЕДОВАНИЯ ИЗБИРАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ В НАЧАЛЬНЫХ ЭТАПАХ СТАНОВЛЕНИЯ ЭЛЕКТОРАЛЬНОЙ СОЦИОЛОГИИ //THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука. – №. 12. – С. 670-672.